Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

Tilshunoslikda frazeologik birliklarni o'rganish

Aziza Sayfidinova Tolibovna*
Farg'ona davlat universiteti
✉ say838670@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar mavzusiga bag'ishlangan bo'lib avvalo ushbu frazeologizmlarni tadqiq qilish muammolari va ularni etimologiyasi hamda orfografiyasiga batafsil to'xtalib o'tadi hamda ushbu turg'un birikmalarni yagona ma'nolari haqoda ma'lumot beradi. Shuningdek frazeologizmlarning shakillanish jarayoni so'zlarning o'zaro leksik birikuvidan hosil bo'lishi, so'z birikmalarining yasalishi uni tashkil etuvchi a'zolarining hozirgi kundagi leksik ma'nolariga bog'liq bo'lmagan ma'lum semantic tarkibiy qismlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar

Frazeologizm, frazeologiya, frazema turg'un birikma, orfografiya, etimologiya, erkin so'z.

DOI: 10.5281/zenodo.22231120

KIRISH

Tilning frazeologik fondi milliy madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda ma'lum bir xalqning o'ziga xosligi eng yorqin namoyon bo'ladi, chunki frazeologiya ko'proq fikrlash va dunyo tasvirini aks ettiradi.Tilning lug'at turkumiga nafaqat alohida so'zlar, balki barqaror so'z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo'lgan turg'un birikmalar frazeologizmlar yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi. Tilshunoslikning frazeologizmlarning ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi frazeologiya (grekcha phrases – "ibora", logos – "so'z" ma'nosida) deyiladi[1]. Frazeologizmlar tilning leksikasiga kirishi sababli frazeologizmga tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo'limi sifatida qaraladi.Frazeologizmlar ikki va undan oriq so'zlarning turg'un birikmasidir. Masalan kapalagi uchmoq, qo'li gul, tarvuzi q'o'ltig'idan tushmoq kabi.

Frazeologizmlarning tarkibida ko'p so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional –ekspressiv ma'noni ifodalaydi[2]. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida ko'p qo'llanadi. Odatda, frazeologizmlar tildagi erkin so'z birikmalari asosida xosil bo'ladi. Biroq ular ko'chma ma'no kasb etib, komponentlaro'zaro birikib yaxlitholda qo'llanishi natijasida singib ketadi.

Frazeologizmlar turli tillarda o'sha xalqning ba'zi urf – odatlarini aks ettiradi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda iboraning komponentlarini so'zma-so'z ag'darmay mazmuni to'g'ri keluvchi iboralardan foydalaniladi[3].

Frazeolagizmlar semantik tomondan umumlashgan ko'chma ma'no ifodalasa, gramatik tomondan ularning butunligi komponentlarining o'zaro birikuvi va gapga ham shu tartibini saqlab qolishi bilan izohlanadi.

Frazeologiyaning hajmini keng doirada va tor doirada tushunish mavjud. Keng tushunishda frazeolagiya doirasiga so'zlarning turg'un birlashmalarlidan tashqari turli hil frazeolagik birliklar mansub deb qaraladi. Tor doiradagi tushunchada esa uni ma'nosi bir so'zga teng ekanligi tushuniladi.

[1]Petrova, M. (2010). Ingliz frazeologik birliklarining etimologiyasi: keng qamrovli tadqiqot. Oksford Universiteti Matbuoti.
[2]Ivanov, A. (2012). Rus frazeologik birliklarining etimologik tahlili. Moskva Davlat Universiteti Matbuoti.
[3]Smit, J. (2014). Frazeologikbirliklarningkelibchiqishivarivojlanishi: etimologikyondashuv. Kembrij Olimlari Nashriyoti.

Frazeologiya deb so‘zlarning semantik bog‘lanishlarini tushunish ham mavjud. Bu hodisalardan faqat bir turini –so‘zlarning turg‘un birlashganlarini - til birligi deb baholash mumkin[4].

Frazeologik birlik deb so‘zlarning barcha tur turg‘un birlashmalarini emas, balki, shulardan bir qismini tan oladilar. Frazeologik birlik bo‘lish uchun so‘zlarning turg‘un birlashmasi obrazli ma'no ko‘chma ma'no anglatishi shart. Frazeologik birliklar iboradan yaxlitligicha anglashilidigan ma'no uchun tarkibidagi so‘z – komponentlarga xos leksik m'anolarning yig‘indisiga teng bo‘lmaydi. Iboraning ma'nosi umumlashma ma'no, maxraj ma'no sifatida namoyon bo‘ladi.

Frazeologik birliklar birdan ziyod so‘zdan tashkil topsa ham, yagona umumiy tushunchani ifodalay-oladigan ulkan ikki tomonlama leksik birliklardir[5]. Frazeologik birliklar leksik ma'nolari bu ularning tarkibiy qismlarining umumiy leksik ma'nolaridir. („Small potatoes“ – something insignificant or unimportant.).

Frazeologizmlarning shakillanish jarayoni so‘zlarning o‘zaro leksik birikuvidan hosil bo‘ladi. So‘z birikmalarining yasalishi uni tashkil etuvchi a'zolarining hozirgi kundagi leksik ma'nolariga bog‘liq bo‘lmagan ma'lum semantik tarkibiy qismning tashuvchisi hisoblanadi[6]. Biz shunga o‘xshash birikmalarning qurilish ma'nosi bilan uni tashkil etuvchilarining leksik ma'nosini farqlashimiz lozim.

Hulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki tilning so‘z boyligi nafaqat so‘zlar , balki frazeologik birikmalar yordamida boyib boradi. Frazeologik birliklar nutq jarayonida yaratib bo‘lmaydigan , balki tilda tayyor birlik sifatida bo‘ladigan so‘z birikmalaridir. Ular maxsus lug‘atlarda yig‘iladi. So‘zlarga o‘xshab iboralar ham bitta mazmunni berib, gapning bir bo‘lagi bo‘lib keladi.

REFERENCES

1.THE IMPORTANCE OF THE DIDACTIC SYSTEM IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHYLOLOGICAL DIRECTION Makhsetova Zuhra Turebaevna Almalyk branch of Tashkent state technical university named after Islam Karimov, English language teacher EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume 1 Issue 9, December 2021

2. O‘ZBEK VA INGLIZ BADIIY ASARLARIDA G‘AYRIODATIY BIRIKMALARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI (Ernest Xeminguey va Abdulla Qahhor ijodida) M.I.Dexqonova, I. Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali “Ozbek tili va adabiyoti” kafedrasi assistenti АНДРИЯНОВСКИЕПЕДАГОГИЧЕСКИЕЧТЕНИЯ 11 февраля 2022 . PHRASEOLOGICAL UNITS IN TRANSLATION Makhsetova Z.T. master's student Chirchik Pedagogical Institute Tashkent region ”Экономикаисоциум” №7(74) 2020

4.ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С КОМПОНЕНТОМ ЗООНИМОМ В КИТАЙСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ З. Т. Махсетова ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES V

5. Akobirov S. Lug‘at – so‘z xazinasi. T., 1963.

[4]Garsiya, L. (2016). Ispanfrazeologikbirliklariningetimologiyasi: tarixiyvaqiyosiytahlil. Universidad De Salamanca matbuot.

[5]Chjan, H. (2018). Xitoyfrazeologikbirliklarinietimologiko'rganish. Pekin tilvaMadaniyatuniversitetimatbuoti.

[6]Kovalska, A. (2019). Polshafrazeologikbirliklariningetimologiyasivasemantikasi: diaxronikIstiqbol. Jagiellonian UniversitetiMat-buoti.